

“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyatida tayinlovlar amalga oshirildi

// 16.07.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dehqonobod-kaliy-zavodi-aksiyadorlik-jamiyatida-tayinlovlar-amalga-oshirildi>



“Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 6 oylik natijalari tanqidiy-tahliliy muhokama qilindi va yakunda yangi tayinlovlar amalga oshirildi. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisi Qurbonov Oybek Abdusattorovich boshqa ishga o'tishi munosabati bilan uni o'z xohishiga ko'ra egallab turgan lavozimidan ozod qilindi va o'z xohishiga ko'ra egallab turgan lavozimidan ozod qilingan Abdusattarov Shukurxon Gayratovich o'rniga “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining transport va logistika masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimiga tayinlandi.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi etib Usarov Raxmat Shoazimovich tayinlandi. Bunga qadar Raxmat Shoazimovich "O'zkimyosanoat" AJning Texnik jihatdan tartibga solish va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish departamenti boshlig'i lavozimida faoliyat yuritgan.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tamiz. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida joylashgan, Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik sanoat korxonasi hisoblanadi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati